

SURXONDARYO VILOYATINING ZIYORAT TURIZIMI SALOHIYATI VA UNING ISTIQBOLLARI

Choriev Abdiqayim Qodirovich - Termiz Davlat universiteti katta o'qituvchisi.

Nortojiyeva Mehribon Rustambekovna - Termiz davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Maqolada Surxondaryo viloyatining ziyorat turizimi salohiyati geografik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Termizdagi diniy va arxeologik yodgorliklar asosiy e'tibor markazida. Viloyatda turizimni rivojlantirishning asosiy istiqbollari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar; Termiz, Surxondaryo, turizim geografiyasi, ziyorat turizimi, madaniy an'analar, sharqona usul, subtropik, landshaftlar, relyef.

ПАЛОМНИЧЕСКИЙ ТУРИСТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ И ЕГО ПЕРСПЕКТИВЫ

Абдиқайим Кодирович Чориев – старший преподаватель Термезского государственного университета.

Мехрибон Рустамбековна Нортожиева – студентка Термезского государственного университета.

Аннотация. В статье с географической точки зрения проанализирован потенциал паломнического туризма Сурхандарьинской области. Основное внимание уделено историко-религиозным памятникам, расположенным в Термезе, а также археологическим объектам региона. Рассмотрены природно-географические условия, климат, культурное наследие и транспортная инфраструктура как факторы развития туризма. Освещены перспективы развития паломнического туризма в области.

Ключевые слова: Термез, Сурхандарья, география туризма, паломнический туризм, культурное наследие, религиозные памятники, ландшафт, рельеф.

PILGRIMAGE TOURISM POTENTIAL OF SURKHANDARYA REGION AND ITS PROSPECTS

A.K. Choriev – Senior Lecturer, Termez State University, Termez, Uzbekistan.

M.R. Nortojiyeva – Student of Termez State University, Termez, Uzbekistan.

Abstract. This article analyzes the pilgrimage tourism potential of Surkhandarya region from a geographical perspective. Historical and religious monuments located in Termez, as well as archaeological sites of the region, are the main focus of the study. Natural-geographical conditions, climate, cultural heritage, and transport infrastructure are considered as important factors for tourism development. The prospects for developing pilgrimage tourism in the region are highlighted.

Keywords: Termez, Surkhandarya, tourism geography, pilgrimage tourism, cultural heritage, religious monuments, landscape, relief.

Kirish. Surxondaryo viloyati O‘zbekistonning janubiy chegarasida joylashgan. Mustaqillik yillarida Termiz chiroyini yanada ochdi, shahar ko‘chalari boshqatdan qurilib, ravon va keng ko‘chalarga aylantrildi, istirohat bog‘lari sharqona usuldagi obod bozorlar, zamonaviy ma‘muriy binolar, barpo etildi, qisqasi shaharning qiyofasi tanib bo‘lmas darajada o‘zgardi, bu o‘z navbatda har bir Termizlik qalbida quvonch va faxrlanish hissini uyg‘otdi.

Surxondaryo viloyati o‘zining noyob tabiati, qadimiy, tarixiy va boy madaniy an‘analari bilan ajralib turadi. Viloyat hududida iqlim subtropik xususiyatga ega, relyefli tog‘, tog‘oldi va tekislik landshaftlaridan iborat. Bu xilma-xillik turizimning bir necha turlarini rivojlantrish uchun keng imkon yaratadi. Mazkur maqolada shu yo‘nalishlar bo‘yicha tahlil qilingan.

Asosiy qisim. Termiz tumanidagi Al-Hakim at-Termiziy ziyoratgohi, Kokildor ota, Qirqqiz, Sulton Saodat yodgorliklari, Boysun tumanidagi Hazrati Sulton Valiy, Jarqo‘rg‘on tumanidagi Xo‘ja Samandar Termiziy ziyoratgohlari, Sherobod tumanidagi Iso Termiziy ziyoratgohi atrofida kichik uy mehmonxonalari qurilishi orqali ziyorat turizimini yanada rivojlantrish mumkin.

Surxondaryo viloyati islom dini va buddizimga oid noyob yodgorliklar bilan boy. Mahalliy aholi orasida o‘ziga xos mavqega ega bo‘lgan Termiz tumanida joylashgan Sulton Saodat majmuasidir. Bundan tashqari Hakim at-Termiziy majmuasi alohida mavqega ega. Bu obektlar nafaqat diniy, balki ilmiy tarixiy turizim uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Termizning tarixiga kelsak ilk nomlaridan biri Taramasta -Taramata baqtrcha-daryo qirg'og'i bo'lgan. Eron ahamoniylari Termizni juda ko'hna shahar deb ta'riflagan shahar Aleksandr Makadoniskiy bosqiniga qadar Ahamoniylar davlatiga bo'ysungan. Miloddan avvalgi 327 yili Aleksandr Makadonskiy Termizni zabt etib, shaharni o'z nomi bilan Aleksandrya deb ataydi. Termizning rivojlanishi va Amudaryo bo'yidagi harbiy-stratigek ahamiyatga ega bo'lgan shaharga aylanishiga olib keldi. 1917 yilda davlat to'ntarilishidan keying sobiq Sovet imperyasi davrida ham Termizda katta-katta inshoatlar qurildi. M'amuriy binolar qad ko'tardi. Ilm - fan rivojlandi, madaniyat va san'at ravnaq topdi. 1999 - yil noyabir oyida YUNESCO Bosh konferensiyasining Parijda bo'lgan 30 - majlisida Markaziy Osiyoning qadim shahridan biri Termiz shahrining 2500 yillig yubileyini 2001-yilda xalqaro miqyosda nishonlashga qaror qilindi. Mazkur qaror munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1999 yilning 27-dekabirida Termiz shahrining 2500 yillik yubileyini 2001-yilda o'tkazish va unga tayyorgarlik ko'rish to'g'risida maxsus qaror qabul qilindi.

Termiz Surxondaryo viloyatining ma'muriy markazi, o'zining boy tarixiy yodgorliklariga ega. Miloddan avvalgi III-II asrlarda paydo bo'lib, bu shahar uzoq vaqt davomida savdo va madiyat markazi bo'lib, xizmat qilgan. Termiz yaqinida joylashgan yodgorlik Kushon vaqtiga tegishli bo'lib, u yerdan topilgan haykal va devoriy rasmlar Kushon davri san'atining buyuk namunalari o'zida aks ettiradi. Tabiiy go'zalliklar qatorida Boysun tog'lari o'zining bioxilma -xilligi bilan ajralib turadi.

Termiz tumanidagi Uchqizil suv ombori Termiz shahridan 20 km uzoqlikda O'zbekistonning eng issiq hududida joylashgan. Bu yerda ko'ngilochar va zamonaviy dam olish maskani barpo etilsa bahorning aprel oylaridan to sentyabr oylariga qadar mahalliy va xorijiy sayyohlar tashrif buyirihi mumkin.

Surxondaryo viloyatida ekoturizim va etnoturizim madaniy meroslari ham mavjud. Viloyatning sharqiy qismida Boysun tog' tizmasida, Teshiktosh g'ori joylashgan. Bu hududlar endimik o'simlik va hayvon turlariga boy, yovvoyi tabiatni muhofaza qilish va ilmiy tadqiqot uchun qulay. Etnoturizim bo'yicha esa

Boysun tumani UNESCOning nomoddiy meros ro'yxatiga kiritilgan Boysun madaniy Makoni bilan mashxur bu yerda bahshichilik san'ati, qadimiy qo'l san'ati, mahalliy milliy taomlar va marosimlar saqlanib qolgan. Etnoturizm orqali mahalliy aholi qo'shimcha daromat manbaiga ega bo'lishi va madaniy merosni saqlashga qiziqishi ortadi.

Mamlakatimizda ziyorat turizimining yo'lga qo'yilayotgani yurtimizda yashab o'tgan buyuk zotlarni yod etib, ularning haqqiga duo qilish va ibratli hayot yo'llarini chuqur o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Muqaddas qadamjolar atrofi yanada obod, yanada ko'rkam bo'ladi. Ziyorat turizimini rivojlantirish masadida amalga oshiraliyotgan keng qamrovli bunyotkorlik ishlari doirasida Termiz tumanidagi Kokildor ota, Qirq qiz, Sulton Saodat yodgorliklari, Chorgumbaz masjidi, Boysun tumanidagi Hazrati eshonbobo ziyoratgohi, Oltinsoy tumanidagi Xo'jayipok ziyoratgohi va shifobaxsh suvi, Uzun tumanidagi Oq ostona bobo maqbarasi kabi tarixiy obidalar so'lim go'shaga aylantirilgan.

1. Qirq qiz qal'asi- Termiz tumanida joylashgan, IX-X asrlarda qurilgan me'moriy yodgorlik hozirgi vaqtda yodgorlikning vayronalari saqlanib qolgan bo'lib, ular ming yilliklardan keyin ham qadimiy inshootning avvalgi ulug'vorligini ko'rsatib turibdi. Tadqiqotchilar bu tuzilma o'tmishda qanday vazifani bajarganligi haqida turli farazlar ilgari suriladi. Balki bu inshoot qadimda shahar chetidagi zodagonlar saroyi, ayollar madrasasi, xonaqoh yoki karvonsaroy bo'lgandir. Ammo ko'pincha tarixchilar bu bino Ko'hna Termizning mudofa qal'asi bo'lib xizmat qilgan, degan fikrga qo'shilishadi.

2. Kokildor ota xonaqohi Kokildor ota xonaqohi Termiz shahrida joylashgan bo'lib, XI asr o'rtalarida qurilgan. Bu bino musulmon olamida hurmatga sazovor bo'lgan muqaddas qadamjodir. Xonaqoh o'zining g'ayrioddiy loyihasi va me'morchiligi bilan ajralib turadi. Tadqiqotchilar fikricha bino XV asrda qayta qurilgan.

3. Jarqo'rg'on minorasi Minora Qumqo'rg'on va Termiz oralig'ida joylashgan bo'lib, hozirda uning balandligi yigirma metrdan oshadi. Minoraga

qarab, uning bezaklaridan ko'zingizni uzolmaysiz, g'ishtlarning mahorat bilan archa naqshida terilganlik effektini yaratadi.

Xulosa. Surxondaryo viloyatlar bo'yicha O'zbekistonda noyob o'ringa ega. Tabiiy va madaniy merosdan barqaror foydalanish, turizimni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash orqali viloyat mamlakat turizim geografiyasida muhim markazga aylanishi mumkin.

Surxondaryo viloyati O'zbekiston turizim geografiyasida o'ziga xos, hech narsa bilan almashtirib bo'lmaydigan o'ringa ega. Bu yerda tabiat va tarix, qadimiy madaniyat va jonli an'analar, tog' va cho'l landshaftlari bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Ayniqsa Boysun tumani UNESCO tomonidan e'tirof etilgan. Xulosa qilib aytganda, Surxondaryo bu O'zbekiston turizim xaritasida hali to'liq ochilmagan, ammo ulkan potinsialga ega noyob tabiiy madaniy xazina. Agar davlat tomonidan qo'llab – quvvatlansa mahalliy tadbirkorlar faolligi oshsa va marketing strategiyasi to'g'ri yo'lga qo'yilsa, viloyat nafaqat mavsumiy tashriflar, balki butun yil davomida faol maskanga aylanishi mumkin. Ayniqsa qo'shni davlatlar Tojikiston, Afg'oniston bilan chegara hamkorligi kengaytirish imkonini beradi. Bu esa mintaqaning iqtisodiy taraqqiyoti yangi ish o'rinlari va xalqaro maydonda O'zbekistonning obro'sini yanada oshiradi.

Foydalangan adabiyotlar

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti “O'zbekiston Respublikasining turizim sohasini jadal rivojlantrishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida” 2016-yil 2-dekabirdagi PF-4861-sonli farmoni.

2. Mirziyoev SH.M.Milliy taraqqiyot yo'limizni qatiyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko'taramiz. 1-tom Toshkent. O'zbekiston. 2017.

3. Soliyev A., Nazarov M., Qurbonov Sh. O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. T.: “Mumtoz so'z”. 2010.

4.Sayfullo Tursunov .Qurbon Eshboyev .Sho'rchi tarixidan lavhalar (2014)

5.Usmanov M.R. Turizim geografiyasi {SamDU}, 2020, 257 b.